

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI TRENING DASTURINING
AHAMIYATI**

Hayitova Zilola Maxmudjonovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi

Qo'shqorov Hayot

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy universiteti talabasi

Hozirgi davrda ta'lim jarayonida psixologik trening o'zaro ta'sir ko'rsatish metodi sifatida amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiy-psixologik trening muloqotni, muomalani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bilim tizimidir.

Trening, asosan shaxsni muloqotga o'rgatish uchun bajariladigan o'yin va mashqlar uzluksizligini tashkil etadi. Trening mashg'ulotlarida psixologiyaning umumiy qonuniyatlarini aniqlashga doir o'tkazilgan tajribalar orqali ularning psixik hodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalari amaliy jihatdan tahlil qilinadi[1]. Shaxs o'zaro munosabatga kirishish orqali o'z-o'zini anglash, kamol toptirish, haq-huquqini, erkinligini aniqroq va to'g'riroq tasavvur qilish imkoniyatini tushunib boradi[2]. Ular bir-birlari bilan o'zaro muloqotga kirishgan sari, o'zaro munosabatlar tajribasi ham ortib boradi. Shuningdek, umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar ham paydo bo'ladi. Munosabatdan ko'zlangan asosiy maqsad – o'zaro til topishish, bir-birlarini to'g'ri tushunish ekanligini anglab yetadilar.

Trening mashg'ulotlari sinf va guruhlarda tashkil qilinsa, o'qituvchi bilan o'quvchining muomala jarayonida muammoli vaziyatlarni yechishni yengillashtiradi hamda o'zaro munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi[3]. Uni o'tkazish orqali shaxslarning bir-birini tushunish, muomala madaniyatini oshirish, ichki muammolarni hal etish imkoniyati tug'iladi. Psixologik treningni muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining faol harakatlarini talab etadi. Natijada ishtirokchilar o'zining bilimi, salbiy yoki ijobiy emotsiyalarni qabul qilishga tayyorligi va o'z navbatida psixologik himoya va xulq-atvorni shakllantirib borish zarurligini tushunadi. Shuningdek, mashg'ulotlarni mazmunli o'tkazish darsda o'qituvchi va o'quvchi qarashlarini tenglashtiradi. Mashg'ulot jarayonida o'qituvchi hamma narsani biluvchi

sifatida emas, balki hamkorlik qiluvchi teng huquqli sherik yoki qatnashuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

O'qituvchi bilan o'quvchilar o'zaro munosabatini boshlang'ich sinfda to'g'ri tashkil etish ularning shaxs sifatida shakllanishi bilan bir qatorda insonlar bilan munosabat o'rnatishga, murakkab vaziyatlarda o'zini boshqarishga poydevor yaratadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixofiziologik jihatdan asabi bo'sh, maktabgacha yoshida kattalarning salbiy munosabatlari orqali o'zida qo'rquv yoki odamlar bilan munosabatga kirishish kompleksini orttirib olgan bolalarga duch kelinishi tabiiy ekanligi tadqiqotimizning barcha bosqichlarida kuzatildi.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning emotsional munosabatlarini aniqlash borasidagi urinishlarimiz jarayonidagi natijalarga muvofiq holda trening dasturini quyidagi bir qator mezonlarga asoslanib ishlab chiqdik:

1. O'quvchilar bilan bo'lgan munosabatdagi to'siqlarni olib tashlash;
2. Ularning muomalaga kirishishdagi emotsional zo'riqishlarini bartaraf etish;
3. O'qituvchi to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish;
4. Tengdoshlari bilan hamkorlik muhitini tashkil etish orqali o'qituvchi bilan munosabatlarini yaxshilash;
5. Ularning ruhiy faolligini ta'minlash.

Tadqiqotimizning psixik tuzatish dasturi o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlaridagi o'ziga xos tomonlarni, xususan, boladagi shaxslararo munosabatga faollikni vujudga keltirish, frustrasion holatlarni bartaraf etish va muloqotda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi mashqlarni amalga oshirish orqali samarali faoliyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan.

Ushbu psixotrening mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'qituvchilar, kichik maktab o'quvchilari va ularni ota-onalarini qamrab olgan holda tashkil etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun psixologik treningda ishtirok etish shaxsiy va kasbiy rivojlanish hamda psixologik imkoniyatlarni kengaytirish imkoniyatini beradi. Psixologik trening mashg'ulotlarimiz o'qituvchi shaxsini, boshlang'ich sinf o'qituvchidagi kasbiy sifatlarini, dars mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan psixologik mashg'ulotlarni boyitib borishga qaratiladi. Psixologik mashg'ulotlarda kichik maktab yoshi o'quvchisida diqqat konsentratsiyasini yaxshilash, xotirani mustahkamlash, nutq va tafakkurini kengaytirishga qaratilgan mashg'ulotlar mazmunini berish. Psixotrening mashg'ulotning ikkinchi bo'limida kichik maktab yoshi o'quvchi shaxsini o'rganishga qaratilgan mashg'ulot turlari beriladi. Bola shaxsini rivojlantirish, bilish xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan

mashg'ulotlar, ota-onalarni ham jalb qilish lozim topdik, ota-onalar farzandlarining psixologik imkoniyatlaridan xabardor bo'ladi hamda psixologik bilimlarini oshirib boradi. Barcha guruhlar bo'yicha trening mashg'ulotlari tashkil etildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilarni ortiqcha zo'riqlashga olib kelmaslik uchun trening mashg'ulotlarini ularda qo'llanilgan mashqlarning qiziqarliligi va jozibadorligini ta'minlash orqali amalga oshirildi.

Xulosa. Psixotrening dasturidan joy olgan mashg'ulotlar o'quvchilarning atrofdagilar bilan muloqotga kirishishi va ularning hamkorlik o'rnatish talablariga javob berishi, nazorat tajribalari ishlarida samarali natijalarga erishishga to'liq imkoniyat yaratildi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan o'quvchilari munosabatidagi xulqiy va emotsional jihatlar samaradorligini oshirish orqali ularning muloqot maromlarida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. O'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatlaridagi kognitiv komponentlar esa alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Beknazarova L.S. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari (pedagogika kollejlari misolida). Psixol. f.n. avtoreferati. – Toshkent, 2007. - 22 b.
2. Эшметов Ш.А. Устоз-шогирд муносабатларининг ижтимоий-психологик феноменлари. Психол. фанл. номз. дис.– Тошкент: 2004. - 157 б.
3. Gaynutdinov R.Z. O'qituvchiga tarbiya psixologiyasi haqida. - Toshkent: 1995. - 20 b.